

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV KUTUBXONA XIZMATLARI

Allaberdiyeva Ruhshona Abdulla qizi

Termiz davlat universiteti Pedagogika va Ijtimoiy ish fakulteti

Kutubxona va axborot faoliyati yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410015>

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv kutubxona xizmatlarini tashkil etishning ahamiyati, zamonaviy yondashuvlari hamda axborot resurslaridan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, kutubxonalarda maxsus texnologiyalar, moslashtirilgan muhit va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan xizmat turlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv kutubxona, nogironligi bo'lgan shaxslar, axborotga teng kirish, maxsus texnologiyalar, ijtimoiy integratsiya, moslashtirilgan muhit

Annotation. This article discusses the importance of organizing inclusive library services for persons with disabilities, modern approaches to their implementation, and ways to ensure equal access to information resources. It also analyzes special technologies, adapted environments, and service models aimed at strengthening social integration within libraries.

Keywords: inclusive library services, persons with disabilities, equal access to information, assistive technologies, social integration, accessible environment

Аннотация. В данной статье рассматривается значение организации инклюзивных библиотечных услуг для лиц с инвалидностью, современные подходы к их внедрению и обеспечение равного доступа к информационным ресурсам. Также анализируются специальные технологии, адаптированная среда и формы обслуживания, направленные на укрепление социальной интеграции в библиотеках.

Ключевые слова: инклюзивные библиотечные услуги, лица с инвалидностью, равный доступ к информации, вспомогательные технологии, социальная интеграция, адаптированная среда.

Kirish

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida axborot va bilim eng muhim ijtimoiy boyliklardan biri sifatida e'tirof etilib kelinadi. Jamiyatning har bir a'zosi, uning jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, mazkur boylikdan teng foydalanish huquqiga ega. Shu jihatdan kutubxonalar nafaqat bilim maskani, balki jamiyatda tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptiruvchi muhim ma'naviy makon hisoblanadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim va ijtimoiy integratsiya masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun axborot resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ular uchun qulay va moslashtirilgan axborot muhitini shakllantirish zamonaviy kutubxonachilikning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Inklyuziv kutubxona xizmatlari-bu shunchaki maxsus sharoit yaratish emas, balki inson qadrini ulug'lash, uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash hamda bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyojini ro'yobga chiqarish demakdir. Bunday yondashuv orqali kutubxonalar aholining barcha qatlamlari uchun ochiq bo'lgan axborot makoniga aylanib, ijtimoiy tenglik va madaniy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Shu bois nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv kutubxona xizmatlarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida qulay axborot muhitini yaratish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bugungi kun kutubxonachiligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolada ana shu masalalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va amaliy jihatlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv kutubxona xizmatlarini tashkil etish masalasi so'nggi yillarda kutubxonashunoslik va axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur mavzu yuzasidan xalqaro va milliy miqyosda olib borilgan tadqiqotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularga teng imkoniyatlar yaratish hamda kutubxona xizmatlarini insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro miqyosdagi ilmiy manbalarda inklyuziv xizmatlarni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslari keng yoritilgan.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olish huquqini ta'minlash davlatlar zimmasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlar kutubxonalar faoliyatini ham bevosita qamrab olib, axborot resurslaridan foydalanishda tenglik tamoyilini joriy etishni talab qiladi. Shuningdek, IFLA tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalarda inklyuziv kutubxona muhitini yaratish yo'llari, foydalanuvchilarga mos xizmat turlari hamda maxsus ehtiyojli shaxslar bilan ishlash metodlari batafsil bayon etilgan.

Ushbu manbalarda kutubxona infratuzilmasini moslashtirish, axborot resurslarini turli formatlarda taqdim etish va zamonaviy assistiv texnologiyalardan foydalanish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilar kutubxonalarni nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, madaniy rivojlanishi va ta'lim olish jarayonida muhim institut sifatida baholaydilar. Milliy olimlar tomonidan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda esa zamonaviy kutubxona xizmatlarini takomillashtirish, foydalanuvchilar bilan ishlashning innovatsion usullari hamda axborot madaniyatini yuksaltirish masalalari yoritilgan.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, tahliliy metod asosida mavjud ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uslubiy qo'llanmalar o'rganildi hamda ularning mazmuni tizimli ravishda tahlil qilindi. Taqqoslash metodi yordamida an'anaviy va inklyuziv kutubxona xizmatlari o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi baholandi. Shuningdek, kuzatish metodi orqali kutubxona amaliyotida foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish jarayonlari o'rganildi va mavjud muammolar tahlil etildi. So'rovnomma metodi esa nogironligi bo'lgan shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlari, kutubxona xizmatlaridan foydalanish darajasi hamda mavjud sharoitlar haqidagi fikr-mulohazalarini aniqlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv metodi asosida inklyuziv kutubxona xizmatlari yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda kutubxona infratuzilmasi, axborot resurslari, texnologik imkoniyatlar, mutaxassislar malakasi va foydalanuvchilar ehtiyojlari o'zaro bog'liq omillar sifatida tahlil qilindi. Mazkur yondashuv inklyuziv xizmatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil elementlaridan ham foydalanilib, inklyuziv xizmatlarning samaradorligi, foydalanuvchilar qamrovi va xizmat sifatiga ta'sir etuvchi omillar umumlashtirildi.

Olingan natijalar asosida kutubxona faoliyatida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu tariqa, adabiyotlar tahlili va tanlangan metodlar mavzuni har tomonlama yoritish, muammoning dolzarbligini asoslash hamda inklyuziv kutubxona xizmatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning axborot olish, ta'lim olish va madaniy hayotda faol ishtirok etish huquqlari xalqaro me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratish zarurligi ta'kidlangan.

Ushbu tamoyillar kutubxona faoliyatida ham o'z ifodasini topib, inklyuziv xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Inklyuziv kutubxona xizmatlari, avvalo, axborot resurslaridan foydalanishdagi jismoniy va texnologik to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Kutubxona binolarining panduslar, keng eshiklar, maxsus ko'tarish moslamalari bilan jihozlanishi harakatlanishda qiyinchilikka ega foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Ko'zi ojiz kitobxonlar uchun Brayl yozuvidagi adabiyotlar, audio kitoblar hamda maxsus ovoqli dasturlar muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun esa vizual axborot vositalari, subtitrlı videomateriallar va imo-ishora tilidagi xizmatlar samarali hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari inklyuziv kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Elektron kutubxonalar, raqamli ma'lumotlar bazalari va masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari foydalanuvchilarga uy sharoitida turib ham zarur adabiyotlardan foydalanish imkonini beradi. Maxsus ekran o'qish dasturlari, matnni kattalashtirish funksiyalari va ovoqli qidiruv tizimlari nogironligi bo'lgan shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini samarali qondirishga yordam beradi. Shu bilan birga, inklyuziv kutubxona muhiti faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanib qolmaydi. Kutubxonachilarning kasbiy malakasi, foydalanuvchilar bilan muloqot madaniyati va individual yondashuv ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda sabr-toqat, hurmat va e'tibor asosiy tamoyil bo'lishi lozim.

Maxsus treninglar va malaka oshirish dasturlari kutubxona xodimlarining inklyuziv xizmat ko'rsatish borasidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Inklyuziv xizmatlarni tashkil etishda ijtimoiy hamkorlik ham muhim o'rin tutadi.

Ta'lim muassasalari, ijtimoiy himoya markazlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali kutubxonalar nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish va ularga mos xizmat turlarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bunday hamkorlik axborot resurslarining ommalashuviga, madaniy-ma'rifiy tadbirlarning kengayishiga va jamiyatda bag'rikenglik muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Natijada inklyuziv kutubxona xizmatlari jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash, inson huquqlarini ro'yobga chiqarish va barcha fuqarolarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vositaga aylanadi.

Zamonaviy kutubxona nafaqat axborot markazi, balki mehr-oqibat, insonparvarlik va teng imkoniyatlar maskani sifatida namoyon bo'ladi. Inklyuziv kutubxona xizmatlarini samarali tashkil etishda me'yoriy-huquqiy asoslarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olish huquqini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, O'zbekistonda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olish va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qator dasturlar amalga

oshirilmogda. Mazkur islohotlar kutubxona tizimida ham inklyuziv xizmatlarni rivojlantirishga zamin yaratmogda. Inklyuzivlik tamoyili asosida faoliyat yurituvchi kutubxonalar foydalanuvchilarga teng sharoit yaratish bilan birga, ularning ijtimoiy faoligini oshirishga ham xizmat qiladi. Turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuvlar va trening mashg'ulotlari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotiga faol qo'shilishiga yordam beradi. Bunday tadbirlar ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtirib, bilim va madaniyatga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, inklyuziv kutubxona xizmatlari psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar uchun yaratilgan qulay muhit ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi. Kutubxonaga tashrif buyuruvchilar o'zlarini erkin va teng huquqli his qilgan holda, axborot resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bugungi kunda jahonda ilg'or tajribaga ega kutubxonalar inklyuziv xizmatlarni rivojlantirishda innovatsion loyihalarni amalga oshirmogda.

Ushbu tajribalar asosida kutubxona infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli resurslarni ko'paytirish va foydalanuvchilarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kelajakda inklyuziv kutubxona xizmatlarini rivojlantirish uchun universal dizayn tamoyillarini keng joriy etish zarur. Bunda kutubxona binolarini loyihalashdan tortib, axborot resurslarini taqdim etishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda foydalanuvchilarning turli ehtiyojlari inobatga olinadi. Natijada kutubxonalar aholining barcha qatlamlari uchun ochiq, xavfsiz va qulay maskanga aylanadi. Shunday qilib, inklyuziv kutubxona xizmatlari jamiyatda insonparvarlik g'oyalarini mustahkamlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tizimli ishlar kutubxonalarni zamonaviy, ochiq va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadigan axborot markaziga aylantiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning axborot olish, ta'lim olish va madaniy hayotda faol ishtirok etish huquqlari xalqaro me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratish zarurligi ta'kidlangan.

Ushbu tamoyillar kutubxona faoliyatida ham o'z ifodasini topib, inklyuziv xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Inklyuziv kutubxona xizmatlari, avvalo, axborot resurslaridan foydalanishdagi jismoniy va texnologik to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Kutubxona binolarining panduslar, keng eshiklar, maxsus ko'tarish moslamalari bilan jihozlanishi harakatlanishda qiyinchilikka ega foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Ko'zi ojiz kitobxonalar uchun Brayl yozuvidagi adabiyotlar, audio kitoblar hamda maxsus ovoqli dasturlar muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun esa vizual axborot vositalari, subtitrli videomateriallar va imo-ishora tilidagi xizmatlar samarali hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari inklyuziv kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmogda. Elektron kutubxonalar, raqamli ma'lumotlar bazalari va masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari foydalanuvchilarga uy sharoitida turib ham zarur adabiyotlardan foydalanish imkonini beradi. Maxsus ekran o'qish dasturlari, matnni kattalashtirish funksiyalari va ovoqli qidiruv tizimlari nogironligi bo'lgan shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini samarali qondirishga yordam beradi. Shu bilan birga, inklyuziv kutubxona muhiti faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanib qolmaydi.

Kutubxonachilarning kasbiy malakasi, foydalanuvchilar bilan muloqot madaniyati va individual yondashuv ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda sabr-toqat, hurmat va e'tibor asosiy tamoyil bo'lishi lozim. Maxsus treninglar va malaka oshirish dasturlari kutubxona xodimlarining inklyuziv xizmat ko'rsatish borasidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Inklyuziv xizmatlarni tashkil etishda ijtimoiy hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari, ijtimoiy himoya markazlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali kutubxonalar nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish va ularga mos xizmat turlarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bunday hamkorlik axborot resurslarining ommalashuviga, madaniy-ma'rifiy tadbirlarning kengayishiga va jamiyatda bag'rikenglik muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Natijada inklyuziv kutubxona xizmatlari jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash, inson huquqlarini ro'yobga chiqarish va barcha fuqarolarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vositaga aylanadi. Zamonaviy kutubxona nafaqat axborot markazi, balki mehr-oqibat, insonparvarlik va teng imkoniyatlar maskani sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv kutubxona xizmatlari nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olish, ta'lim va madaniy hayotda faol ishtirok etish huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xizmatlar kutubxonalarni jamiyatdagi tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqaruvchi maskanga aylantiradi. Zamonaviy texnologiyalar, moslashtirilgan infratuzilma hamda malakali mutaxassislar faoliyati orqali maxsus ehtiyojli foydalanuvchilar uchun qulay axborot muhiti yaratiladi. Natijada kutubxonalar aholining barcha qatlamlari uchun ochiq bo'lgan bilim va ma'naviyat markaziga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya.
2. IFLA. Kutubxona xizmatlarida inklyuzivlik bo'yicha tavsiyalar.
3. UNESCO. Public Library Manifesto.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid me'yoriy hujjatlar.
5. O'zbekiston Milliy kutubxonasi materiallari va rasmiy nashrlari.
6. Yo'ldoshev E. Kutubxonashunoslik asoslari. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
7. Axmedova M. Zamonaviy kutubxona xizmatlari. — Toshkent: Fan nashriyoti.